

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 55 (1654), 2026-yil 22-mart, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



NAVRO‘Z SIMFONIYASI — UCH MING YILLIK QUDRATDAN QUVVAT OLAYOTGAN YOSHLIK, BUNYODKORLIK SHIJOATI

“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.



Yangi O‘zbekistondagi yangilanishlar nafasi bor bo‘y-basti bilan Navro‘zga hamohang! Ko‘p millatli xalqimiz qalbida jo‘sh urayotgan hayotsevarlik, bunyodkorlik kayfiyati, milliy o‘zlikni anglashga kuchli ishtiyokda buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Navro‘z — sharqona yilboshi. Uning kelishi yangi nafas, yangi hayotni boshlab beradi. Qishda kuch to‘plagan daraxtlar, tuproq ostida ildiz otgan don va urug‘lar yashil to‘n kiyib, ko‘kka bo‘y cho‘zadi. Tabiatga hamohang ravishda insonlar qalbida ham ezgulik jo‘sh uradi.

Muhtasham “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tgan tantanali bayram tadbirida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, ko‘p millatli xalqimizga Navro‘z tabrigini yo‘lladi. Bu yil Navro‘z va Ramazon hayiti bir pallada nishonlanmoqda. Bu

ham xalqimizning saodatli kunlari bardavomligidan dalolat bermoqda. Zero, tabiat uyg‘onishi va ruhiy poklanish ramzi bo‘lgan qutlug‘ kunlar ko‘p millatli xalqimizni yanada jipslashtirmoqda. Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun deb yashash kundalik a‘molimizga aylani

bormoqda. Ana shu birdamlikning amaliy ifodasi o‘laroq, dunyoning olis va yaqin mamlakatlarida mehnat qilayotgan, tahsil olayotgan vatandoshlarimizga ham samimiy salom va tilaklar yo‘llandi. Tong epkinidan kishi qalbida ajib tuyg‘ular jo‘sh uradi. Muazzam sahna tarafdin yoqimli

musiqi taraladi. U avj olishi barobarida sahnadagi lolalar yuz ochadi. “Yangi O‘zbekiston” bog‘idan bahor quvonchini yetkazib suyunchi so‘ragan bolalar kulgusi va ovozi taraladi.

Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK NUTQI

Assalomu alaykum, qadri vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar! Butun dunyo nurga, go‘zallikka to‘lgan shu dilbar faslda jonajon diyorimizga sharqona yangi yil — Navro‘zi olam kirib kelmoqda.

Bugun bamosil ikki azim daryo tutashmoqda — Navro‘z bayramini muborak Ramazon hayiti bilan birga nishonlammoqdamiz.

Tabiat uyg‘onishi va ruhiy poklanish ramzi bo‘lgan mana shunday qutlug‘ ayyomlar bilan sizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Dunyoning olis va yaqin mamlakatlarida ishlayotgan, tahsil olayotgan vatandoshlarimizni ham muborakbod etib, ularga ezgu salom va tilaklarimizni izhor etaman.

Bayram barchamizga muborak bo‘lsin! Navro‘zi olam diyorimizga tinchlik va baxt olib kelsin!

Aziz do‘stlar! Bugun bahorni sog‘ingan yuraklarimiz yangi kun, yangi hayot shukuhi bilan yashamoqda.

Osmondan obirahmat yog‘ilib, daryo va ko‘llarimiz suvga to‘lmoqda. Bog‘larimiz, qir va adirlarimiz o‘t-o‘lanlar bilan qoplab, yilimiz barakali bo‘lishidan darak bermoqda.

Shahar va qishloqlarimiz, vodiylar va vohalarimizda sayil-tomoshalar boshlanmoqda.

Yangilanish fasli bo‘lgan Navro‘z kunlarida xalqimizning umummilliy birdamligi, bunyodkorlik salohiyati yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Navro‘z qadriyatlariga sodiq bo‘lib, millati, tili, dinidan qat‘i nazar, har bir yurtdoshimizni, butun el-yurtimizni rozi qilish yo‘lidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarmoqdamiz. Bu yilgi bayramga “Navro‘zni ulug‘lash — insonni ulug‘lashdir”, degan

da‘vatkor g‘oya asos bo‘lgani ham buning yaqqol tasdig‘idir.

Biz barcha hududlarimizga, qishloq va ovullar, mahallalarimizga Yangi O‘zbekiston nafasini olib kirish bo‘yicha katta harakat boshladik.

Yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish borasida ham ulkan qadamlar qo‘ymoqdamiz. Yangi-yangi zamonaviy korxonalar, kommunikatsiya tarmoqlari, shinam uy-joylar, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat va sport obyektlari barpo etilmoqda.

Kelgusida bunday qurilishlar ko‘lamini yanada kengaytiramiz.

Ushbu fayzli tongda mirishkor dehqon va fermerlarimizga barchamiz yuksak hurmat va ehtirom bildiramiz.

Siz, azizlarning elimiz dasturxonini yanada to‘kin va farovon qilishdek ezgu ishlarimizda

zafar va omadlar tilaymiz. Chunki sizlarning olijanob mehnatingiz bilan xalqimizning rizqu nasibasi butun bo‘ladi. Bu borada davlatimiz, jamiyatimiz sizlarni doimo qo‘llab-quvvatlaydi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Yangi O‘zbekiston mamlakatimiz yoshlari uchun yuksak parvozlar, katta-katta g‘alabalar maydoniga aylani bermoqda. Yaqinda yoshlarimiz bilan uchrashib, bunga yana bir bor ishonch hosil qildim. Har bir yo‘nalishda — ta‘lim, ilm-fan, madaniyat va san‘at, sport, IT va biznes sohalarida yangi nomlar, yangi qahramonlar paydo bo‘lmoqda. Mana shunday bilimli, jo‘shqin va izlanuvchan o‘g‘il-qizlar bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Davomi 2-beta

STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI JADAL RIVOJLANIB BORMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-mart kuni Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida yetakchilar bir-birlarini muborak Ramazon hayiti va bahoriy Navro‘z ayyomi munosabati bilan dildan qutlab, ikki mamlakatning qardosh xalqlariga tinchlik-osoysishtalik, farovonlik va bardavom ravnaq tiladilar.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga ham samimiy tabriklarini yo‘lladi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda samarali muloqotlar davom etmoqda. Tovar ayirboshlash hajmining barqaror o‘shishi, shu jumladan, tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali ta‘minlanmoqda. Yaqinda ishga tushirilgan “Shovot —

Toshhovuz” savdo zonasining samarali faoliyati ham o‘zaro savdoning oshishiga xizmat qilmoqda.

Yuk tashishlar hajmi, shu jumladan, Turkmanboshi porti orqali izchil ortmoqda. Energetika, sanoat, suv xo‘jaligi va transportda kooperatsiya kengayib bormoqda, Parlamentlararo, hududlararo, ishbiarmonlik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Tomonlar Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoda yuzaga kelayotgan vaziyat yuzasidan ham fikr almashdilar. Barqaror tinchlikka erishishning yagona yo‘li vaziyatni siyosiy-diplomatik choralar bilan hal etish ekanini ta‘kidlandi.

Joriy yilda ko‘zda tutilgan ko‘p va ikki tomonlama tadbirlar rejasini ham muhokama qilindi.

O‘ZA

SAMIMIY QUTLOVLAR

Tabiat uyg‘onishi, hayotda yangi bosqich boshlanishining ramzi bo‘lgan, ezgulik, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik va ona zaminga g‘amxo‘rlik kabi abadiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan qadim bayram — Navro‘zi olam munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga samimiy tabriklar kelmoqda. Ularda yurtimizning ko‘p millatli xalqiga tinchlik-osoysishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari bildirilgan. Xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, taniqli siyosat va jamoat

arboblarining qutlovlarida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish, barqaror taraqqiyotni ta‘minlash va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarga yuksak baho berilgan.

Ochiq, tinchliksevar va pragmatik tashqi siyosat olib borilayotgani, mintaqaviy hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar faol ilgari surilayotgani tufayli davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzi izchil o‘sib borayotgani alohida ta‘kidlangan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich! Bahorgi uyg‘onish ramzi bo‘lgan Navro‘z bayrami munosabati bilan samimiy tabriklarini qabul qilgaysiz. Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi

munosabatlari yuksak darajaga chiqqan. Strategik sheriklik hamda itifoqchiligimizni bundan buyon ham do‘st xalqlarimiz farovonligi, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va

barqarorlikni mustahkamlash yo‘lida faol rivojlantiramiz deb ishonaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda Sizga mustahkam sog‘liq va muvaffaqiyatlar, barcha halqimizga esa baxt-saodat hamda farovonlik tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblar!

Oy taqvi mi bo‘yicha Yangi yil munosabati bilan yo‘llagan tabrigingiz uchun Sizga samimiy minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz. Xitoy hukumati va xalqi nomidan Sizni, hukumatingizni va O‘zbekiston xalqini an‘anaviy bayramingiz — Navro‘z kirib kelishi munosabati bilan chin dildan qutlayman.

Men Xitoy — O‘zbekiston munosabatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qarataman. O‘tgan yili biz Siz bilan ikki marta uchrashib, turli sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishdik. Bu yangi davrdagi Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi barcha sharoitda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Men strategik o‘zaro ishonch va an‘anaviy do‘stlikni doimiy ravishda mustahkamlash, umumiy taqdirga ega Xitoy — O‘zbekiston hamjamiyatini qurishni chuqurlashtirish va amaliy darajaga ko‘tarish uchun har tomonlama hamkorlikni kengaytirish borasida Siz bilan birgalikda ishlashga tayyorman.

Sizga mustahkam sog‘liq va faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Si SZINPIN, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON VA POKISTON YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

20-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif o‘rtasida telefon muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Ikki davlat yetakchilari butun musulmon ummati uchun muqaddas bo‘lgan Ramazon hayiti — Iyd al-Fitr va qutlug‘ Navro‘zi olam bayramlari munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar. Do‘st O‘zbekiston va Pokiston xalqlariga tinchlik-osoysishtalik, farovonlik va davomiy ravnaq tilaklari izhor etildi.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil fevral oyida Pokistonga amalga oshirgan davlat tashrif ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yangi sifat bosqichiga ko‘targani alohida ta‘kidlandi.

Oliy darajadagi tashrifdan keyin vazirliklar, idoralar va hududlar darajasidagi muloqotlar yanada faollashgani, o‘zaro almashinuvlar aniq natijalar bilan boyib borayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Suhbat davomida tomonlar so‘nggi vaqtlarda Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasidagi keskinlikdan jiddiy tashvish bildirib, har qanday ziddiyat va muammo faqat tinch va diplomatik vositalar orqali hal etish zarurligiga urg‘u berildilar.

O‘ZA



SAMIMIY QUTLOVTLAR

Boshlanishi 1-betda

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuhu.
Navro'z bayrami munosabati bilan Siz Janobi Oliylariga eng samimiy tabriklar va ezu tilaklarini izhor etishdan xursandmiz. Sizga sihat-salomatlik, birodar O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqiga bardavom taraqqiyot hamda farovonlik tilaymiz.
Siz Janobi Oliyarlari bizning salomlarimiz va ehtiromlarimizni qabul qilgaysiz.

**Salmon bin Abdulaziz Ol SAUD,
Saudiya Arabistoni Podshohi**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuhu.
Navro'z bayrami munosabati bilan Siz Janobi Oliylariga eng samimiy tabrik va tilaklarini izhor etishdan xursandman.
Sizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, qardosh O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqiga bardavom yuksalish hamda farovonlik tilayman.
Siz Janobi Oliyarlari mening salomlarim va ehtiromlarimni qabul qilgaysiz.

**Muhammad bin Salmon bin Abdulaziz Ol SAUD,
Saudiya Arabistoni Valiahdi,
Vazirlar Mahkamasi Raisi**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Aziz qardoshim!
Har yil tabiat uyg'onishining timsoli bo'lgan Navro'z bayrami munosabati bilan Siz Janobi Oliylariga va qardosh O'zbekiston xalqiga xalqim va shaxsan o'z nomimdan eng samimiy tabriklarimni izhor etaman.
Ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladigan qadim Navro'z an'anamiz bashariyatga umid va barokat xushxabarini bermoz. Musharak madaniyat makonimizda nishonlanadigan mazkur bayramda do'stlik va qardoshlik rishtalarimizning yanada mustahkamlanishini tilayman.
Navro'z hozirda ehtiyojimiz bo'lgan tinchlik, muvofiqlik va hamkorlikka bo'lgan umidlarni uchqunlatishi — eng katta orzumiz va tilagimizdir.
Bayram munosabati bilan Siz Janobi Oliylariga, oilangizga sog'liq va baxt-saodat, qardosh O'zbekiston xalqiga omonlik va farovonlikka to'la kelajak tilayman.

**Rejep Tayyip ERDOG'AN,
Turkiya Respublikasi Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Sizga va qardosh O'zbekiston xalqiga Navro'z bayrami munosabati bilan samimiy tabriklarim hamda eng ezu tilaklarimni qabul qilgaysiz.
Yangilanish, bunyodkorlik va farovonlikni o'zida mujassam etgan ushbu muqaddas bayram yuksak qadriyatlariga intiluvchi butun insoniyat hayotida alohida o'rin tutadi. Qutlug' bahor ayyomi Navro'z qardosh xalqlarimizga iliqlik, mo'l-ko'pchilik, quvonch va farovonlik olib kelsin.
Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli mustahkam do'stlik va yaxshi qo'shniçilikka asoslangan Qozog'iston — O'zbekiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari bundan buyon ham xalqlarimiz farovonligi yo'lida jadal rivojlanib borishiga ishonaman.
Hurmatli Shavkat Miromonovich, fursatdan foydalanib, O'zbekiston ravnaqi yo'lidagi faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, mamlakat xalqiga esa farovonlik va to'kinlik tilayman.
Xalq baxtli-saodatli yashasin, farovonlik esa to'kin va mo'l bo'lsin!

**Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog'iston Respublikasi Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Navro'z bayrami bilan Sizni va butun qardosh O'zbekiston xalqini chin dildan tabriklayman.
Bu yorqin va quvonchli bayram bahorda tabiat uyg'onishi, birlik va do'stlik, tinchlik va farovonlik ramzidir. Ushbu ayyom xalqlarimizni bog'laydigan ko'p asrlik do'stlik va mehr-oqibat an'analari o'zida mujassam etib, umumiy tarixga asoslangan qardoshlik munosabatlarini mustahkamlaydi.
O'zaro hurmat, ishonch va strategik sheriklikka asoslangan barcha darajalardagi hamkorligimiz bundan buyon ham birgalikdagi sa'y-harakatlar asosida davom etib, xalqlarimiz kelajagi porloq bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishiga ishonchim komil.
Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Sizga sihat-salomatlik va davlatchilik faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh o'zbek xalqiga esa tinchlik va taraqqiyot tilayman.
Hurmat bilan,

**Sadir JAPAROV,
Qirg'iz Respublikasi Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Muhtaram Shavkat Miromonovich!
Xalqaro Navro'z bayrami munosabati bilan eng ezu va samimiy tilaklarga yo'g'rilgan qutlovlarimizni qabul qilgaysiz.
Qadimiy tarixga ega ushbu bayram madaniy meros va ko'p asrlik an'analimiz mustahkam ifodasi sifatida uni nishonlaydigan xalqlar o'rtasidagi aloqalarni tinchlik va xavfsizlik, yaxshi qo'shniçilik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash g'oyalari asosida mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.
Navro'zning boqiy bunyodkorlik an'analari bizni xalqlarimiz va mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalari hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'lida tinimsiz sa'y-harakat qilishga undaydi.
Tojikiston tomoni O'zbekiston bilan strategik sheriklik va ittifoqchilik doirasidagi davlatlararo munosabatlarning bugungi darajasidan mamnun.
Ishonchim komil, mamlakatlarimiz ushbu qadimiy bayramning yuksak umuminsoniy qadriyatlariga tayangan holda, ko'p qirrali munosabatlarni mazmunan boyitish yo'lida bundan buyon ham birgalikda harakat qiladilar.
Ushbu qutlug' kunlarda Sizga mustahkam sog'liq va mas'uliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi zafarlar, mamlakatingizning qardosh xalqiga esa baxt-saodat, farovonlik, tinchlik hamda barqarorlik, izchil taraqqiyot va ravnaq tilayman.
Navro'z muborak!
Chuqur hurmat bilan,

**Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Xalqaro Navro'z bayrami munosabati bilan Sizga va Siz orqali qardosh O'zbekiston xalqiga samimiy tabriklarim va eng ezu tilaklarimni yo'llayman!
Dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng nishonlanadigan ushbu go'zal bayram bahorning boshlanishi va tabiatning uyg'onishini anglatadi. Navro'z bayrami turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu yorqin bayram umid ramzi bo'lib, bugungi dunyoda insonparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga undaydi.
Ushbu ajoyib bayram Siz va butun mamlakatingiz xalqi uchun baxt, quvonch va yangi muvaffaqiyatlar olib kelsin!
Chuqur hurmat bilan,

**Serdar BERDIMUHAMEDOV,
Turkmaniston Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Xalqaro Navro'z bayrami munosabati bilan Sizga samimiy tabriklarim va eng ezu tilaklarimni yo'llayman.
Navro'z hayotga muhabbat va yaxshi kelajakka ishonchning mustahkamlanishi ramzidir. Ushbu bayram ko'p asrlar davomida xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.
Ushbu qutlug' ayyom Siz va O'zbekiston xalqi uchun tinchlik, quvonch va yangi tashabbuslar bilan nishonlansin. Sizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va mas'uliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.
Chuqur hurmat ila,

**Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV,
Turkman xalqining milliy yetakchisi,
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Aziz qardoshim!
Sizga va qardosh O'zbekiston xalqiga buyuk ajdodlarimizdan qolgan Navro'z bayrami munosabati bilan shaxsan o'z nomimdan va Ozarbayjon xalqi nomidan samimiy tabriklarimni yo'llash menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.
Bahor kelganidan darak beruvchi, tabiatga mehr, ruhiy poklik va yangilanish shodiyonasi bo'lmish ushbu milliy bayram qardosh xalqlarimizga farovonlik, baxt va fayz-u baraka olib kelishini tilayman.
Biz do'stlik va birodarlikning ajoyib namunasi bo'lgan Ozarbayjon — O'zbekiston munosabatlarning chin sayin rivojlanayotgani hamda ittifoqchilikimizning mustahkamlanayotganida juda mamnunmiz. Ishonchim komilki, umumiy kelib chiqish, tarix va madaniyat rishtalari bilan bog'langan qardosh O'zbekiston bilan keng ko'lamli munosabatlarimizni davlatlarimiz manfaatlarini va xalqlarimiz farovonligi yo'lida yanada chuqurlashtirish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni davom ettiramiz.
Ushbu fayzli kunlarda Sizga va oilangiz a'zolariga mustahkam sog'liq va baxt-saodat, qardosh O'zbekiston Respublikasi hamda uning xalqi ravnaqi yo'lidagi faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.
Hurmat bilan,

**Ilhom ALIYEV,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Sizni odamlar qalbin samimiylik, quvonch, baxt va porloq kelajakka umid bilan to'ldiruvchi Navro'z bilan chin qalbidan tabriklayman.
Ushbu bayramga xos o'zaro hurmat va konstruktiv hamkorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlagan holda, Belarus O'zbekiston bilan do'stlik va sheriklik munosabatlarini izchil mustahkamlab bormoqda. Davlatlararo muloqot va amaliy hamkorlikni rivojlantirish bundan buyon ham fuqarolarimiz manfaatlariga xizmat qilishi va Yevroosiyo davlatlararo barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shishiga ishonaman.
Hurmatli Shavkat Miromonovich, ushbu muborak kunda Sizga mustahkam sog'liq, mas'uliyatli faoliyatingizda tuganmas kuch-g'ayrat va muvaffaqiyatlar, do'st o'zbek xalqiga esa tinchlik va totuvlik tilayman.
Hurmat bilan,

**Aleksandr LUKASHENKO,
Belarus Respublikasi Prezidenti**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Janobi Oliyarlari!
Pokiston xalqi va hukumati nomidan, shuningdek, shaxsan o'z nomimdan Siz, Janobi Oliyarlari, yaqinlaringizni hamda qardosh O'zbekiston xalqini Navro'z va Ramazon hayiti bilan samimiy muborakbod etib, eng ezu tilaklarimni izhor etaman.
Navro'z va Ramazon hayiti umuminsoniy qadriyatlar — tinchlik, mehr-oqibat, hamjihatlik hamda shukronalini o'zida mujassam etadi. Ushbu quvonchli voqealar xalqlar o'rtasidagi totuvlik, o'zaro hurmat va hamkorlikka bo'lgan umumiy intilishimizni yangilash imkonini beradi.
Siz, Janobi Oliyarlaringiz joriy yil fevral oyida Pokistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifingizni mamnuniyat bilan eslayman, yaqin kunlarda ikki tomonlama aloqalarimizni yanada mustahkamlash uchun oliy darajadagi almashinuvlarni davom ettirishimizni intilish bilan kutaman.
Fursatdan foydalanib, Siz, Janobi Oliyarlari mustahkam sog'liq va farovonlik, qardosh O'zbekiston xalqiga esa bardavom tinchlik, taraqqiyot hamda ravnaq tilayman.
Janobi Oliyarlari, Sizga bo'lgan yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz.

**Shahboz SHARIF,
Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri**

Shuningdek, quyidagilar o'z qutlovlarini yo'llagan:
Qozog'iston Respublikasining birinchi Prezidenti **Nursulton NAZARBOYEV**, Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o'rinbosari, ichki ishlar vaziri **Shayx Sayf bin Zoid Ol NAHAYON**, Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud ABBOS**, Tatariston Respublikasi Raisi **Rustam MINNIXANOV**, Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Nurlan YERMEKBAYEV**, Turkiya davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek OMURALIYEV**, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zo davlatlari Parlamentlararo assambleyasi bosh kotibi **Dmitriy KOBISKIY**, Shanxay hamkorlik tashkilotining Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi direktori **Ularbek SHARSHEYEV**, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi mitropoliti, O'rta Osiyo mitropoliya okrugi rahbari **Vikentiy**.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING
NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA
BAG'ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI TABRIK NUTQI**

Boshlanishi 1-betda

Aziz farzandlarim, bugun Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lishdek ulkan baxt va yuksak sharaf sizlarga nasib etmoqda. Qancha-qancha ajdodlarimiz intilib yashagan shu buyuk orzuni ro'yobga chiqarishga sizlar albatta qodirsiz.
Bugungi tinç va osoyishta hayotning, yaratilgan katta imkoniyatlar, ota-onalar, ustoz-murabbiylaringiz mehnatining qadriga yetib, tinimsiz o'qib-o'rgansangiz, bilim va mahoratingizni doimo oshirib borsangiz — kelajak albatta sizniki bo'ladi.

Bu yo'lida sizlarga, butun O'zbekiston yoshlariga yana qanday sharoit zarur bo'lsa, barchasini yaratib berishga tayyormiz.

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun deb yashasangiz — Vatan va xalq ham sizni e'zozlab, boshiga ko'taradi!

Yangi O'zbekistonning oltin avlodi bo'lib, uning zafar bayrog'ini baland ko'tarishdan hech qachon to'xtamang, aziz farzandlarim!

Qadrli yurtodoshlar!
Mahalla deganda, ko'z oldimizda avvalo ona yurtimizning go'zal timsoli namoyon bo'ladi. Biz Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida yaxshi niyat bilan katta dastur va rejalarini amalga oshirmoqdamiz.

Bu ishlarda oila va jamiyatda tinchlik-totuvlik, o'zaro mehr-oqibetni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni joyida hal etish, ezigulik va adolatni qaror toptirish uchun ko'pni ko'p o'taxon va onaxonlarimiz, "mahalla yettilligi", faol fuqarolarimiz yaqindan ishtirok etadilar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, 22-mart kuni nishonlanadigan Mahalla tizimi xodimlari kuni bilan jonkuyar mahalla raislari va faollarini, barcha yurtodoshlarimizni chin qalbidan tabriklab, ularga yangi muvaffaqiyatlar tilayman.
Muhtaram do'stlar!

Ming yillar davomida xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'prik bo'lib kelayotgan Navro'zning tinçlik, do'stlik va hamkorlik g'oyalari bugungi notinch zamonda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizda yashayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari bu bayramni bir bo'lib, shod-u xurramlik bilan nishonlamoqda. Mana shunday ahilik va totuvlik

Yangi O'zbekistonimizni birgalikda barpo etishning eng ishonchli kafolatidir.

Biz jamiyatimizda millatlar va dinlararo hamjihatlikni bundan buyon ham mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Bu borada qo'shni va qardosh mamlakatlar bilan birga, yagona Markaziy Osiyo ovozi bo'lib, mintaqamizning tinçlik, birodarlik va hamkorlik makoni sifatidagi nufuzini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Fursatdan foydalanib, davramizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilarini, xalqaro tashkilotlar vakillarini Xalqaro Navro'z kuni bilan samimiy qutlab, ularning xalqiga qizg'in tabriklarimizni yo'llaymiz.

Qadrli do'stlar!
Mana shu tarovatli lahzalarda barchangizga, butun el-yurtimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Azizlar, qarang, qanday go'zal yurtimiz, qanday saxovatli zaminimiz, betakror tabiatimiz bor.

Bu behob boylklarni ming yillar osha asrab-avaylab kelayotgan mehnatkash, oq ko'ngil va olijanob xalqimiz bor.

Xudo bizga ato etgan yer-suvimizni, barcha imkoniyatlarimizni qadrlab, ulardan oqilona foydalansak, bir boyligimizga, albatta, o'n boyluk qo'shiladi.

Shu bois, azaliy an'analimizni davom ettirib, ko'chat ekib, bog' yarataylik, uyimiz, mahallamizni obod qilib, hayotimizni yanada go'zal va farovon etaylik!

Yaxshi qo'shniçilik, ahilligimiz va ezu ishlarimiz bilan yuksak marralarga intilyotgan xalq ekanimizni dunyoga namoyon etaylik!

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot, yangi tarix, yangi kelajak yarataylik!

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!
Siz, qadrdonlarimni, butun xalqimizni Navro'zi olam bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Yangi O'zbekiston Navro'zi — yuksalish hamda taraqqiyot davri xalqimizga ravnaq va farovonlik ato etsin!

Barcha pok niyatlarimiz amalga oshsin!
Yaratgan Parvardigor jonajon Vatanimizni o'z panohida asrasin!

Yangi kun, yangi baxt barchamizga muborak bo'lsin!

**MUAZZAM MAJMUA –
MA'NAVIYAT KO'ZGUSI**

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va uning tevarigidagi bunyodkorlik ishlari ko'z o'ngimizda bajarildi. Qurilish poydevoriga 2018-yil 15-iyun – Ramazon hayiti kunida ramziy tamal toshi qo'yilgan edi. Oradan 8 yil o'tib, yana aynan shu muborak ayyom arafasida ushbu muhtasham markaz barcha uchun eshiklarni ochdi.

Tarixiy Hazrati Imom majmuasiga yondosh o'n gektarga yaqin hududda o'tgan davrda qurilish, pardozlash va markaz muzeyi mazmun-mohiyatini shakllantirish ustida jadal ishlendi. Bu jarayonlar davlatimiz rahbarining tegishli tavsiya va takliflari bilan amalga oshirildi. Prezidentimiz tamal toshi qo'yilishidan boshlab, bunyodkorlikning har bir bosqichida qurilish maydoniga tashrif buyurib, ishlarning borishini muttasil ko'zdan kechirdi. Tanishish jarayonida muhim maslahatlar berildi, mutaxassislar ishtirokida majmua tarhiga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi hamda takomillashtirildi.

Markaz mahallamiz hududida qad rostladi. Shu bois, davlatimiz rahbarining majmuaga har bir tashrif hudud ahliga o'zgacha kayfiyat, xushnudlik bag'ishlaydi. Holbuki, mamlakatimiz yetakchisi har safar uyimiz oldiga kelib, holimizdan xabar olishi, ochiq muloqotga kirishib, kamchilik yoki muammolarimiz haqida so'rab-suriştirishini ilgari tasavvur ham qila olmasdik.

Islom sivilizatsiyasi markazi tiklanishi barobarida mahallamiz hududi, unga tutash ko'plab ko'cha, maydon va inshootlar yangidan jiroyi ochdi, misli ko'rilgan darajada obod bo'ldi. Majmua aholi, qolaversa, poytaxtdiklar va mehmonlar uchun ma'naviyat o'chog'iga, tarix ko'zguisiga, madaniy hordiq chiqaradigan maskanga aylandi. Ayniqsa, oqshom chog'i fusunkor manzaradan ko'z quvnaydi.

Poytaxtning uzoq tarixga ega Qorasaray, Zarqaynar ko'chalariga yangi hayot nafasi kirib keldi. Qorasaray ko'chasidan o'tkazilgan avtomobillar uchun yer osti yo'li, ikki chekkada mumtoz usulda qad rostlagan mehmonxonalar, savdo rastalari, Zarqaynar Eski Jo'va

bozoriga olib chiqadigan tor va uzun ko'chasida bajarilgan tarixiy uslubdagi ta'mirlash ishlaridan nafaqat xorijlik sayyohlar, balki mahalliy aholi ham hayratga tushmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, markaz tashkil qilinishidan asosiy maqsad xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan barpo etilgan ana shunday noyob merosni ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganishdir. Bu yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk ulomma va mutafakkirlarning hayoti hamda ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otadi. Ular bilan aholi va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yishga katta yo'l ochadi. Hozir inson qalbi va ongini egallash uchun turli xavf-xatarlar kuchayib bormoqda. Shunday murakkab davrda markaz islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib beradi. Dunyoga ma'rifat ulashadi. Bugun ushbu tamoyillar ro'yobiga guvoh bo'lib turibmiz.

Mamlakatimiz yetakchisining megaloyihasi bo'lgan Islom sivilizatsiyasi markazi yangi O'zbekistonni tinçlik, ezigulik, bilim va ma'rifat diyori sifatida olamga tarannum etadi. Tamaddunlarning yuzaga kelishi uchun insonlarni birlashtirib, ularning intilishini taraqqiyotga yo'naltira oladigan ulkan va ilg'or g'oyalarni taqiyotli shart. Bunday g'oyalarni inson tafakkurini, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va texnologiyalar rivojini tubdan o'zgartiradi. Ana shunday g'oyalarni mevasi bo'lgan mazkur ulkan va noyob loyiha barchamizga muborak bo'lsin!

**Sanoat YAHYOYEVA,
“Xastimom” mahalla fuqarolar
yig'ini raisi, II darajali “Sog'lom avlod uchun”
ordeni sohibi**

YANGI KUN – YANGI HAYOT



Doim g'olib, muzaffardir yangi kun, yangi hayot, Qutlug' bo'lsin, vatandoshlar, yangi kun — yangi hayot.

Ona yurtim, binolaring buncha ko'rkam, buncha ko'rkam, Buncha ko'rkam qaddu basting yangi o'lkam, yangi o'lkam.

Avaylagil yer-suvingni, avaylagil tuprog'ingni, Urug' sochib, ko'chat ekib, yaratgil o'z gulbog'ingni.

Bahor chorlar yorug', nurli xayollarga, xayollarga, Bog'laringiz to'lsin gul-u chechak hamda nihollarga.

Bir xalq bo'lib, obod Vatan yaratgaymiz, Go'zal Vatan jamoliga dunyolarni qaratgaymiz.

Ona yurtim, ota makon — mehrim balqir, Mehnatkashim, zahmatkashim, ona xalqim.

Yangi zamon — gulgun o'g'il-qizlaringdir, Kelajakka eltar nurli izlaringdir.

Xudo o'zi ato etmish rizq-ro'zingiz, Eldoshlarim, qutlug' bo'lsin Navro'zingiz.

Uylaringiz to'lsin doim bug'doylarga. D uch qalmasin O'zi hargiz balolarga, Tinchlik bersin Yer yuziga, dunyolarga.

Bu diyorda dunyolarcha umidlar bor, niyatlar yor, O'zing asra shu jonajon Vatanimni, Parvardigor.

Ona yurtim, ming asrlik azim xalqim, Yangi zamon qurayotgan mardlariga ta'zim, xalqim.

Sirojiddin SAYYID, O'zbekiston xalq shoiri



Navro'zni ulug'lash – insonni ulug'lashdir!

NAVRO'Z SIMFONIYASI — UCH MING YILLIK QUDRATDAN QUVVAT OLAYOTGAN YOSHLIK, BUNYODKORLIK SHIJOATI



Bu islohotlar ming yillar naridan kelayotgan quvvat, genofondimizdagi bunyodkorlik kodlarini uyg'otib yubordi. Shu ma'noda, uni Navro'zning yoqimli, iliq epkinigga o'xshatishga haqlimiz.

Navro'zdan so'ng barcha tirik jon hayotini yangidan boshlagani singari bugun O'zbekiston yoshlari Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lishdek ulkan baxt va yuksak sharaf bilan yashamoqda. Ular ajdodlarimiz intilgan buyuk orzuni ro'yobga chiqarish yo'lidagi baryapti. Bu yo'lda bardavom va izchil harakat qilishi uchun yoshlarga zarur barcha sharoit yaratib berilmoqda.

Bunday yangilanishlarni bahomning yaxshi kelishiga mengzash mumkin. Bahor bu yilgiday yetarlicha quyoshli kunlar bilan birga seryog'in kelganida xirmon barakali bo'ladi. Bugun yoshlar uchun zarur vaqtda nur — ishonchga asoslangan kuch, obihoyot — o'sish, o'rganish uchun yetarlicha sharoit taqdim etilmoqda. Bu xirmonimiz barakali bo'lishidan darak beradi. Ha, yangi O'zbekistonning oltin avlodlari zafar bayrog'ini baland ko'taraveradi.

Navro'z deganda qadriyatlar, xususan, mahalla tizimi ko'z oldimizga keladi. Xalqimiz azaldan bir butun xalq, yagona Vatan bo'lib yashashga intilgan. Shu bois, aksariyat masalalar mahalladan nariga o'tmagan, o'sha joyning o'zida hal etilgan. Yangi O'zbekistondagi islohotlarning hayotbaxshligi shundaki, tarixiy haqiqatlar zamonaviy yechimlar bilan ro'yobga chiqmoqda. Buni Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili doirasidagi islohotlarda ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu yangilanishlar jarayonida oila va jamiyatda tinchlik-totuvlik, o'zaro mehr-oqibani mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni joyida

hal etish, ezgulik va adolati qaror toptirish uchun ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlar, "mahalla yetiligi", faol fuqarolarning yaqindan ishtirok etishiga ishonch bildirdi. Shuningdek, 22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni bilan soha vakillari va barcha yurtdoshlarimizni samimiy tabriklab, faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishiga tilak bildirdi.

Navro'z — hayot tantanasi. Xalqimiz azaldan uni keng nishonlagan, bu kunni hayotning yangidan boshlanishi deya qabul qilgan. Insoniyat tarixini teran o'rganagan olimlar Navro'zning eng qadimgi bayram ekanini ta'kidlaydi. Xalqimiz uni asrlar davomida asrab-ayaylab, ulug'lab kelyapti. Navro'z nafaqat yangi kun, balki gina va arazlar unutiladigan, faqat yaxshi amallar qilinadigan bayramdir. Eng yirik saltanatlaridan biriga asos solgan Amir Temur bobomiz ham ezgulik bilan ish yuritib, adolati qaror toptirishga jiddiy e'tibor qaratgan. Dunyo xalqlarini tinchlik, do'stlik va iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar bayrog'i ostida birlashtirgan.

Mamlakatimiz yetakchisi tadbirida ishtirok etgan xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillarini Xalqaro Navro'z kuni bilan samimiy qutladi. Ularning xalqlari va mamlakatlariga ezgu tilaklarini yo'ladi. Davlatimiz rahbari, jumladan, bunday dedi: "Azaliy an'analimizni davom ettirib, ko'chat ekib, bog' yarataylik, uyimiz, mahallamizni obod qilib, hayotimizni yanada go'zal va farovon etaylik!"

Yaxshi qo'shniçilik, ahilligimiz va ezgu ishlarimiz bilan yuksak marralarga intilayotgan xalq ekanimizni dunyoga namoyon etaylik! Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot, yangi tarix, yangi kelajak yarataylik!"

"Yangi O'zbekiston" bog'idagi bayramda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, parlament va hukumat a'zolari, turli hududlardan mehmonlar, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan diplomatik korpus vakillari qatnashdi. Ushbu tantana katta konsert dasturi bilan davom etdi. Folklor-etnografik jamoalar hamda san'atkorlarning chiqishlari, milliy o'yin va askiyalar barchaga zavq-shavq ulashdi.

Uyg'onish, yangilanish ayymoi — Navro'z falsafasida tinchlik, o'zaro hamjihatlik, totuvlik qadriyatlarini mujassam. Shu ma'noda, Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston" bog'idagi tantanali tadbirdan keyin poytaxtimizdagi Milliy madaniy markazlar pavilyoniga tashrif buyurgani bunyodkorlik, bag'rikenglik, do'stlik, birdamlik bayramining mantiqiy davomi bo'ldi.

Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va bag'rikenglik — xalqimizga xos fazilatlar. O'zbek xalqining o'ziga xos ushbu mentaliteti yurtimizda tinch-totuv yashashning muhim manbaidir. Zero, asrlar davomida shakllangan mehroqibat va saxovat, mehmondo'stlik va rahm-shafqat xalqimizning yuksak ma'naviy fazilatlarini ifodalaydigan qadriyatlar ham sinovdan o'tib, xalqimiz itodasini yanada mustahkamladi.

Bugun dunyo har qachongidan ham notinch, turli mintaqalarda qurolli to'qnashuvlar, o'zaro qarama-qarshilik, savdo urushlari davom etmoqda. Mana shunday murakkab vaziyatda yangi O'zbekistonning tinchlikparvar siyosati, ayniqsa, yurtimizda milliy madaniyatni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni asrab-ayaylash va mustahkamlash orqali yosh avlodni bag'rikenglik va hamjihatlik ruhida tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotgani katta ahamiyatga ega.

Barqaror tinchligimizni ta'minlashga qaratilgan ana shunday yondashuv evaziga ayni paytda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashamoqda. O'z taqdiri va kelajagini O'zbekiston bilan bog'lagan turli millatga mansub yurtdoshlarimiz bugun halol mehnati, vatanparvarlik fazilatini bilan respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Bunda, shubhasiz, yurtimizda faoliyat yuritayotgan 157 ta milliy madaniy markazning o'rni katta.

Prezidentimiz tashrif buyurgan Milliy madaniy markazlar pavilyoni Do'stlik bog'i hamda Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi binosiga tutash maydonida barpo etilgan. Bu yerda 22 millatning o'ziga xos arxitekturasi aks ettiruvchi ikki qavatli do'stlik uylari barpo etilgan. Qozoq, qirg'iz, turkman va boshqird o'tovlari, koreys, belarus, ukrain, grek, olmon, dungan, polyak, yahudiy, gruzin, arman, tatar va qrim-tatar, uyg'ur, turk, tojik, xitoy, rus hamda ozarbayjon xalqlarining do'stlik uylarida har bir millat urf-odatidan so'zlovchi suratlar, uy-ro'zg'or buyumlari, san'at asarlari, cholg'u asboblari va boshqa anjomlar o'rindi.

Mazkur majmua davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlar o'z madaniyatini va urf-odatini, an'anasi saqlab qolishi, rivojlantirishi uchun bunyod etilib, o'tgan yili 30-iyul — Xalqlar do'stligi kuni arafasida foydalanishga topshirilgan edi.

— Navro'z — millatdan qat'i nazar, mana shu yurtida yashayotgan barcha fuqaroning eng orziqib kutadigan bayramidir, — deydi O'zbekiston koreys madaniyat markazlari assotsiatsiyasi raisi Viktor Pak. — Zero, bu bayram mohiyatida yangilanish, bunyodkorlik, hamjihatlik g'oyalari mujassam. Shu ma'noda, O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlikda Navro'zning ahamiyati katta.

Milliy madaniy markazlar pavilyoni, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos do'stlik shaharchasida bayram shukhi yaqqol seziladi. Zero, turli millat vakillari bu yerda o'z milliy urf-odatlarini namoyon qilish bilan bir qatorda o'zaro hamjihatlikda Navro'z bayramiga atab katta do'stlikdoshlik mahallalarini qurib boshladilar.

Davlatimiz rahbari bu yerda milliy markazlar faoliyati bilan yaqindan tanishdi, ishtirokchilar bilan samimiy muloqot qildi. Uchrashuvlar chog'ida milliy madaniy markazlarimiz umumxalq bayramlarini yuqori kafiyyatda o'tkazishdagi hissiy alohida e'tirof etildi. Yuksak vatanparvarligi, fidokorona mehnati bilan respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga qo'shayotgan hissiy uchun turli millatga mansub yurtdoshlarimizga minnatdorlik bildirildi.

Prezidentimiz pavilyon mehmonlari uchun tashkil etilgan badiiy dasturni tomosha qildi. Milliy madaniy markazlar vakillari bilan birga suratga tushdi.

Boboravshan G'UZIDDINOV, Avazbek XUDOYQULOV, "Yangi O'zbekiston" muxbirlari

Boshlanishi 1-betda

Bayramni tomosha qilayotganlar beixtiyor bir soniyada bolaqalb bo'lib qolganini his etasiz. Ularning nigohi, ohangi va ozarlari buloq suviday tiniq va totli. Bunday yorug' tuyg'u XXI asr kishisi uchun naqadar tansiq ekanini ta'kidlashning zarurati yo'q, nazarimizda.

Uch ming yillik davlatçilik tarixiga ega ekanimizdan haqli ravishda faxrlanamiz. Tarix charxpalagi doim bir maromda aylanmagani ham bor gap. Xalqimiz qancha sinovni boshdan kechirmasin, milliy o'zligini yo'qotmay, ko'z qorachig'idek asrab keldi. Hayotning yana bir haqiqati bor: muayyan muddat so'ngan quvvat yana qayta jonlanadi. Bu ham tabiatning xuddi Navro'z va Ramazon bayramlari uyg'un holda kelishidagi in'omi. Mamlakatdagi o'zgarishlar shiddatiga mos ravishda xalqimiz qalbidagi ham birdamlik, katta quvvat bilan olg'a intilish simfoniyasi yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha yurtdoshimizni rozi qilishga qaratilgan. Buning zamirida xalqimiz farovonligini ta'minlashdek ezgu maqsad bor. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, shu yo'ldagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Qutlug' ayym "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan g'oya asosida o'tayotgani ana shu ezgu maqsadlarning amaliy ifodasidir.

Iftixor

Butun mamlakatimiz uzra ezgu bir chorlov yangrab, tarixiy xotiramiz, milliy g'ururimiz ulug' bir kuch bilan qayta uyg'ongandek, ertasi kuni — Ramazon hayiti tongida qadim o'zbek diyorining turli qishloq va kentlaridan ziyoratchilar Zarafshon sohillari tomon oqib kela boshladi. Toshkent shahri yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, ayni sahar pallasi poytaxti azimdan misli ko'rilmagan darajada ko'p mashinalar karvoni yo'lga chiqqan. Bunday holat ilgari hech qachon kuzatilmagan.

Darhaqiqat, shu kunlarda Imom Buxoriy bobomizga mehrimiz, ehtiromimiz har qachongidan ham yuksak maqomda namoyon bo'lmoqda.

Payariqdagi qadrdonlarimga qo'ng'iroq qildim. Hoji Abdushukur ota Muhammadqulov bunday dedi: "Yoshim to'qsonga qarab boryapti, ne-ne buyuk o'zgarishlarni ko'rdim, lekin bunday ulug' ziyorat, bunday ulug' ibodatni ilgari hech qachon ko'rmanman! Yer-u ko'kka odam sig'may ketdi! O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy, shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari ajoyib ma'ruza qildi. Muqaddas ayymimizning juma kuniga to'g'ri kelganini qarang-da! Juma namozini ham muftiy hazratlari boshchiligidagi o'qiydiz. Ilgari chekka va ko'rimsiz qishloq bo'lgan bu maskan bir necha yilda shaharga — ma'rifat markazi, ziyoratchilar maskaniga aylanib ketdi".

To'ng'ich akam — butun hayotini yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlagan xalq ta'limi a'lochisi, Misridin domladan so'radim: — Hayit namozini yangi masjidida o'qish nasib etdimi? — Har doimgidek bo'ladi deb bemalolroq borgan ekanimiz, yaqinlashib bo'lmadi. Hammayoq

UCH HAYRAT

Yurtimiz bo'ylab ko'klam nafasi kezayotgan farahbaxsh damlarda — 19-mart kuni mamlakatimiz yetakchisi yangidan barpo etilgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, muqaddas qadamjoni ziyorat qildi. Majmua tarkibidagi binolar, diniy va ma'rifiy maskanlar, bu yerdagi ulkan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.



tumonat odam. Oxiri shu yaqin oradagi boshqa masjidida o'qishga majbur bo'ldik. Lekin juma namoziga, albatta, vaqtda yetib boramiz. Eshitganlarimiz tahlil qilib, o'zimizga bir xulosaga keldim. Buni qarangki, tumanimizda bir kunning o'zida uchta hayrat, uchta mo'jiza yuz berdi.

Birinchi — Allohning inoyati bilan yangi O'zbekiston durdonasi deya e'tirof etilayotgan shunday muazzam majmua ulug' ayym — mubarak Ramazon hayiti kuni el-yurtimizga o'z bag'rini ochdi. Mamlakatimiz diniy-ma'rifiy jamoatchiligining eng ko'zga ko'ringan namoyandalari ishtirokida bo'lib

o'tgan bu ziyorat va ibodat chindan ham har doim ham bo'lavermaydigan buyuk voqea edi. Ikkinchi — xalqimiz, mo'min-musulmonlarimiz ilgari hech ko'rilmagan birlik va hamjihatlik, cheksiz ehtirom uyg'usi bilan ziyoratga o'tlandi. Imom Buxoriy bobomiz,

o'tgan bu ziyorat va ibodat chindan ham har doim ham bo'lavermaydigan buyuk voqea edi. Ikkinchi — xalqimiz, mo'min-musulmonlarimiz ilgari hech ko'rilmagan birlik va hamjihatlik, cheksiz ehtirom uyg'usi bilan ziyoratga o'tlandi. Imom Buxoriy bobomiz,

ul zotning mubarak sajdagohi o'sha kunlari bamisoli milliy birlik timsoliga aylandi. Ma'naviy kuch-qudrat manbai sifatida bizni bir, yagona yurt dilbandlari bo'lib, o'zaro mehroqibat ko'rsatib, yanada ahil va inoq yashashga chaqirdi.

Uchinchisi... Keling, bu haqda batafsil fikr yuritaylik. Bir necha kun oldin radiodan yomg'ir yog'adi degan ma'lumot berilgan edi, lekin yog'madi. Aks holda, tashqarida maydonlarni to'ldirib o'tirgan shuncha odam ertalabki izg'irinda ivib, sovqotib, shamollashi mumkin edi. Imom Buxoriy bobomizning ziyoratiga kelgan odamlarni ayab, mehribon Parvardigorimiz shunchalar marhamat ko'rsatgani chinakam mo'jiza emasmi?

Xalqimiz mustamlakachilik zulmi davridagi tazyiq va taqiq ostida ne-ne azoblar bilan umr o'tkazib, bunday mo'jizalarni hatto xayoliga ham keltirmagan. Biz esa bir kunda shuncha o'zgarishga, yangi bir uyg'onishga guvoh bo'ldik.

— Tinchlik yaxshi-da, ilohi, yurtimizga ko'z tegmasin! — dedi Abdushukur bobo nuroniyalarimizga xos donishmandlik va shukronalik bilan.

— Aytganingiz kelsin, ustoz! — dedim o'tmish va bugun manzaralarini xayolan solishtirgan holda men ham mamnun bo'ldim.

Murtazo QARSHIBOY, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Korxonada har birining quvvati 5 million tonna bo'lgan
12 ta tegirmon to'liq quvvatga chiqqanidan so'ng ma'danni qayta
ishlash hajmi 60 million tonnaga yetadi.

YANGI O'ZBEKISTON

Nuqtayi nazar



KELAJAKKA MUSTAHKAM ISHONCH TIMSOLI



Abdulla XURSANOV,
"Olmaliq kon-metallurgiya
kombinati" aksiyadorlik jamiyati
boshqaruvi raisi, senator

Shu yilning 16-mart kuni Prezidentimizning Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrifi va 3-mis boyitish fabrikasi ishiga start berilishi mamlakatimiz sanoati taraqqiyotidagi muhim voqealardan biri sifatida tarixga muhurlandi. Mazkur tashrif, avvalo, davlat rahbarining strategik ahamiyatga ega yirik sanoat korxonalariga qaratayotgan doimiy e'tibori va g'amxo'rligining yana bir amaliy ifodasidir.

Qolaversa, kombinat jamoasi mehnatiga berilgan yuksak baho va kelgusi taraqqiyot uchun mustahkam ishonch ramzi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashrif nafaqat ishchi-xodimlarimiz, balki butun O'zbekiston xalqi uchun ulkan rag'bat bo'ldi.

Tashrif davomida keng ko'lami investitsiya loyihalari, xususan, yangi quvvatlar ishga tushirilishi, ilg'or texnologiyalar joriy etilishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan tanishildi. Bu jarayonlar mamlakatimizda sanoatni chuqur modernizatsiyalash va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari dastlab 3-mis boyitish fabrikasining rudani tayyorlash korpusi binosida kombinat ishchi-xodimlari, mehnat faxriylari, quruvchilar, loyihachilar va xorijiy mehmonlar bilan uchrashdi.

3-mis boyitish fabrikasi butun respublika

sanoati uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ushbu korxonada har birining quvvati 5 million tonna bo'lgan 12 ta tegirmon to'liq quvvatga chiqqanidan so'ng ma'danni qayta ishlab chiqarish hajmi 60 million tonnaga yetadi. Bu mavjud 1-mis boyitish fabrikasi quvvatidan 1,5 barobar ko'p. Bitta tegirmonning quvvati esa 2-mis boyitish fabrikasining butun quvvatiga teng. Yana bir jihati, fabrikaning seleksiya sexida 450 tonna molibden va 870 kilogramm reniy ishlab chiqariladi. Shuningdek, oltin ishlab chiqarishning ko'payishi zargarlik sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Filtrlash korpusida bo'lib, mis konsentratini ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi. Yangi va ilg'or texnologiyalarni qo'llash evaziga ishlab chiqarilayotgan konsentratda namlik eski texnologiyadagi 10 foizdan 8 foizgacha tushirilgan.

Har 1 tonna mis katodiga mos ravishda qo'shimcha 6 tonna sulfat kislotasi ishlab



chiqariladi. Sulfat kislotasi esa kimyo sanoatida mineral o'g'itlar va metallurgiya sohasida uran mahsulotlari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Fabrikada maydalash jarayonida HPGR texnologiyasi qo'llanilishi xarajatlarni 20 foiz qisqartirdi. Flotatsiya bosqichida onlayn analizatorlar namuna tahlili vaqtini 12 soatdan 5-6 daqiqaga tushirib, metall yo'qotilishini keskin kamaytiradi. Shuningdek, gravitatsion boyitish va vertikal bisserli tegirmonlar kabi innovatsiyalar hisobiga oltin ajratib olish hajmi 1 foiz oshadi. Bu 3-MBF yuqori iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va texnologik barqarorlikni ta'minlovchi zamonaviy majmua ekanini ko'rsatmoqda.

Fabrika uchun zarur uskunalarni yetkazib bergan, dunyoning yetakchi kompaniyalaridan biri hisoblangan FLSmidth kompaniyasi vitse-

prezidenti Piter Flanagan so'zga chiqib, AQSH fuqarolariga vizasiz rejim joriy qilingani uchun O'zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildirdi.

Piter Flanagan: "OKMK bilan hamkorlik qilish katta sharaftir. Biz barpo etilgan 3-mis boyitish fabrikasini nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqaga tog'-kon sanoatida texnologik inqilob deb hisoblaymiz. 3-MBF yuqori muhandislik salohiyati va strategik sheriklikning namunasidir. Biz OKMK bilan uzoq muddatli hamkorlikni davom ettirishdan mamnunmiz va keyingi yirik loyihalarda ham eng zamonaviy innovatsiyalarimiz bilan ishtirok etishga tayyormiz. Xuddi shunday quvvatdagi fabrika o'tgan yili Chilida ishga tushirildi. U 8 yil ichida qurildi. 3-MBF esa 4 yil davomida. Kim loyihalarni amalga oshirishni o'rganmoqchi bo'lsa, O'zbekistonga kelsin!" deya ta'kidladi.

Prezidentimiz tashrif davomida 3-mis boyitish fabrikasining Raqamlashtirilgan boshqaruvi markazi faoliyati bilan ham tanishib, sun'iy intellekt orqali, ayniqsa, tog'-kon va metallurgiya tarmoqlarida samaradorlikni oshirish bo'yicha katta imkoniyatlar borligini qayd etdi.

Sanoatga sun'iy intellektni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirish, xomashyo va mahsulot sifat ko'rsatkichlarini onlayn nazorat qilish, har qanday talafot va texnik xavf-xatarlarning to'liq oldini olish, og'ir sanoatda inson omili bilan mehnat muhofazasini ishonchli ta'minlash muhim ahamiyatga ega natijadir.

Davlatimiz rahbari sohada intellektual mulk va patent ishlari ko'lamini kengaytirish masalasini strategik vazifa sifatida belgiladi.

Ta'kidlanganidek, fabrikadagi har bir texnologik bosqichda qo'llanilayotgan ilmiy yechimlarni patentlash bu — nafaqat huquqiy himoya, balki yangi texnologiya, yangi ishlab chiqarish va yangi bozorlar demakdir.

Bu yondashuv OKMKni yirik sanoat korxonasi, shuningdek yuqori texnologiyali va innovatsion yechimlarni eksport qiluvchi xalqaro markazga aylantirishga ham xizmat qiladi.

Albatta, raqamlashtirilgan yirik sanoat korxonasini boshqarish yuqori malaka va zamonaviy bilimga ega kadrlarni talab etadi. Bu esa o'z-o'zidan bugungi yoshlarni yangi bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar qilib tayyorlashimiz zarurligini ko'rsatmoqda. 3-mis boyitish fabrikasi uchun yetuk kadrlarni tayyorlashda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2024-yilda ochilgan Muhandislik maktabi va 2025-yilda tashkil etilgan MTU MISIS Olmaliq filiali huzuridagi ilg'or muhandislik maktabi muhim rol o'ynadi.

Shu kuni fabrikaning o'zida davlatimiz rahbari raisligida metallurgiya sanoatini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi va unda ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, Sanoat kengashini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Ushbu kengash, jumladan, yurtimizdagi tog'-kon sanoati va metallurgiya sohasidagi barcha korxonaga va ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Tashrif doirasida mamlakatimiz yetakchisi tomonidan yangi metallurgiya majmuasi hamda 4-mis boyitish fabrikasi qurilishini jadallashtirish, shuningdek, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash, muqobil hamda innovatsion yechimlardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlar bo'yicha topshiriqlar berildi.

Mazkur tashrif kombinat jamoasi uchun katta ruhiy kuch va ilhom manbai bo'ldi. Davlatimiz rahbarining besavosa e'tibori va qo'llab-quvvatlovi har bir xodim zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklashi barobarida ularni yangi yutuqlarga undaydi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati jamoasi bildirilgan ishonchni chuqur anglagan holda o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni siddiqildan bajarish, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yanada oshirish va mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash yo'liga bor kuch va salohiyatini safarbar etadi.

Shubhasiz, 2026-yil 16-mart kuni tarixiy tashrif kombinat faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. U nafaqat bugungi yutuqlarni mustahkamlaydi, balki kelgusi ulkan rejalarni amalga oshirish uchun poydevor yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va "yashil" energetika tamaddunning ajralmas qismiga, iqtisodiyotning qon tomiriga aylandi. Bu jarayonni harakatlantiruvchi asosiy kuch esa misdir, chunki ko'plab yuqori texnologiyali mahsulotlarni bu tabiiy boyliksiz yaratish imkonsiz.

RESURSNi SOTISH EMAS, UNI QIYMATGA AYLANTIRISH BUGUNGI IQTISODIYOTNING ASOSI

O'zbekiston boy tabiiy resurslarga ega. Ammo dunyo iqtisodiyotida eng katta farq endi resursga egalikda emas, balki undan qanday oqilona va samarali foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Tabiiy boyliklarga ega davlatlar ko'p, biroq ularning barchasi ham rivojlanmagan, chunki taraqqiyot manbai xomashyoni sotishdan ko'ra, uni yuqori qiymatli mahsulotga aylantirishdadir.

Bugungi kunda yurtimizda mis ishlab chiqarish sohasida jadal rivojlanish kuzatilayotir. Yiliga 100 ming tonna misni o'zimizda qayta ishlab va undan yuqori qiymatli mahsulotlar yaratish imkoniyati mavjud. Shu yilning o'zida amalga oshirilgan yangi loyihalar hisobiga misni chuqur qayta ishlab chiqarish quvvatlarini 240 ming tonnaga yetkazildi. Bu iqtisodiy samaranni oshirish, milliy sanoatni modernizatsiyalash va yangi ish o'rnlari yaratish imkonini ham beradi.

Olmaliqda davlatimiz rahbari tomonidan rasman ishga tushirilgan 3-mis boyitish fabrikasi aynan shu yondashuvning amaliy ifodasi bo'ldi. Bu loyiha shunchaki yangi inshoot emas, balki resurs iqtisodiyotidan qiymat yaratuvchi iqtisodiyotga o'tishning aniq namunasidir.

Mazkur majmua "Yoshlik-1" koni bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yerdan qazib olinayotgan ma'danni chuqur qayta ishlashga xizmat qiladi. Fabrikaning to'liq quvvatga chiqqanidan so'ng 60 million tonna ma'danni qayta ishlashi uni nafaqat mamlakat, balki global miqyosda ham yirik sanoat inshooti qatoriga olib chiqadi. Demak, gap oddiy kengayish haqida emas, balki mutlaqo yangi industrial bosqich haqida bormoqda.

Loyihaning ko'lami uning qurilish jarayonidayoq namoyon bo'ldi. Mintaqada mis ko'rilmagan darajadagi ish hajmi amalga oshirildi — o'n minglab quruvchilar, minglab texnika vositalari, ulkan hajmdagi beton va metall konstruksiyalar. Bu raqamlar faqat qurilish miqyosi haqida emas, balki qayta ishlangan sanoatni rivojlantirishga bo'lgan qat'iy irodasi haqida so'zlaydi.

Biroq asosiy masala miqdorda emas, samarada. Fabrika ishga tushgach, ma'dan oddiy xomashyo sifatida emas, balki qayta ishlangan mahsulotga aylanmoqda. Ilk bosqichning o'zidayoq millionlab tonna ma'dan qayta ishlanib, o'n minglab tonna mis konsentratini olingani bu jarayonning samaradorligini ko'rsatadi. Lekin bu hali boshlanishi, xolos. To'liq quvvatga chiqilganda esa yillik ishlab chiqarish hajmi mutlaqo boshqacha iqtisodiy natijalarni ta'minlaydi.



Bunyodkorlik sur'ati

TAJIRIBA, IRODA VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYA UYG'UNLIGI



Ismoilxon VAHOBOV,
3-mis boyitish fabrikasi
bosh muhandisi

3-mis boyitish fabrikasi O'zbekiston sanoatida yangi shahar ochildi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerda har bir uskuna, har bir jarayon, har bir texnologiya yangicha fikr va bilim bilan uyg'unlashib, fabrikani zamonaviy sanoatning yuragiga aylantirmoqda. Bu nafaqat metall ishlab chiqarish markazi, balki inson tafakkuri va mehnatining amaldagi namoyonidir.

Mis bilan birga oltin, kumush va boshqa qiymatli elementlar ham ajratib olinadi. Ya'ni bir vaqtlar arzon xomashyo sifatida qaralgan resurs endilikda kompleks qiymat manbaiga aylanmoqda.

Agar xomashyo eksport qilinganda olinadigan daromad bilan tayyor mahsulotdan tushadigan tushumni taqqoslasak, farq bir necha barobarni tashkil etadi. Bu qo'shilgan qiymatning naqadar katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi. Chunki har bir qayta ishlab chiqarish bosqichida resursning narxini oshiradi, uning iqtisodiy ahamiyatini kengaytiradi.

Jarayonni yanada chuqurroq tushunish uchun global bozorga nazar tashlash kifoya. Bir necha yil oldin mis narxi ancha past bo'lgan, bugun esa u deyarli ikki baravar oshgan misning strategik resursga aylanayotganini ko'rsatadi. Ammo eng katta foydani xomashyoni sotganlar emas, balki uni qayta ishlab, yuqori qiymatli mahsulotga aylantirganlar ko'radi.

Masalan, mis xomashyo sifatida sotilganda bir qiymatga ega bo'lsa, undan tayyorlangan mahsulot — kabel, sim yoki yuqori texnologiyali



jihozlardagi detal sifatida uning qiymati yana bir necha baravar ortishi mumkin. Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, chuqur qayta ishlangan mis mahsulotlari xomashyoga nisbatan o'n baravargacha yuqori iqtisodiy samara berishi mumkin.

Loyihaning yana bir muhim jihati — uning samaradorligida. Masalan, ma'danni tashish tizimi an'anaviy usullardan farqli ravishda konveyer orqali tashkil etilgan xarajatlarni bir necha barobar qisqartirish imkonini bermoqda. Oqibatda ishlab chiqarish tamaraxi kamayib, raqobatbardoshlik oshmoqda. Shu bilan birga, raqamli boshqaruvi tizimlari orqali barcha jarayonlar doimiy nazorat qilinishi ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

Loyihaning yana bir yutug'i — minglab yangi ish o'rnlari yaratilishi. Bu faqat bandlikni ta'minlash emas, balki yangi turdagi — yuqori malakali, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ish o'rnlari. Yosh mutaxassislar bu yerda ishlab bilan birga zamonaviy sanoatning to'liq ishtirokchisiga aylanmoqda. Fabrika to'liq quvvatga chiqqanidan so'ng 4000 ga yaqin yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan. Bu shunchaki statistik ko'rsatkich emas, balki minglab oilalarning daromad manbai, yoshlar uchun imkoniyat va jamiyat uchun barqarorlik demakdir. Hozirning o'zidayoq 1400 dan ortiq yoshlar ishlayotgani va ularning asosiy qismi xodim ekanini esa kelajakka qaratilgan investitsiyaning inson kapitali orqali amalga oshirilayotganini anglatadi.

Yosh mutaxassislar "Muhandislar maktabi" va amaliy tayyorgarlik dasturlari orqali bilim va ko'nikmalarini oshirayotgani esa sanoatning yangi avlodini shakllantirayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon ish o'rni yaratish bilan birga tajriba to'plash va global raqobatga tayyor kadrlar tayyorlash demakdir. Bu esa yana bir muhim xulosaga olib keladi: qo'shilgan qiymat faqat mahsulotga emas, inson kapitalida ham yaratiladi. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda eng katta boylik bilim va tajribaga ega insonlardir.

Olmaliqdagi 3-mis boyitish fabrikasi sanoat obyekti emas, iqtisodiy fikr va strategik tafakkurning amaliy namunasiga aylandi. Bu yerda asosiy ustuvorlik xomashyoda emas, uning oqilona va samarali qiyamatga aylantirilishida. Bu jarayon insoniyatning jamiyat va iqtisodiyotdagi asosiy qoidasi resursdan foydalanish madaniyati qanchalik muhim ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Bugungi dunyoda barqaror rivojlanishning asosiy mezonini hech narsani sodda xomashyo sifatida ko'rmaslik, har bir resurs va imkoniyatdan maksimal qiymat yaratishdir. Shu ma'noda, 3-mis boyitish fabrikasi mamlakat uchun strategik muhim makonga aylanib, iqtisodiy nuqtayi nazardan samaradorlikning yangi bosqichini ochmoqda.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

mis konsentratini ishlab chiqarildi. Bu raqamlar faqat sanoat imkoniyatini ko'rsatib qolmay, har bir xodimning sadoqati, mas'uliyati va fidoyiligi ham aks ettiradi.

Hozirda mingdan ortiq xodim faoliyat yuritmoqda, ularning aksariyati yosh mutaxassislar. Yoshlar zamonaviy texnologiyalar, yuqori bilim va malaka bilan ishlab chiqarish jarayonini yuritib, mamlakat sanoatining rivojiga hissa qo'shmoqda. Har bir jarayonda ularning e'tibori, faoliyati va intilishi fabrikaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

3-mis boyitish fabrikasi xodimi bo'lganimdan faxrlanaman. Har bir o'rganigan bilimim, texnika bilan ishlab tajribam va jarayonlardagi mas'uliyatim mamlakatimning kelajagi, sanoat rivojiga xizmat qiladi.



Obodlik faqat ko'cha-ko'ylarni tozalash yoki infratuzilmani yaxshilash bilan emas, avvalo, insonning ko'ngli, niyati va jamoaviy mas'uliyatidan boshlanadi. Shu ma'noda, har bir mahalla obod bo'lsa, yurtimizning taraqqiyoti va farovonligi yanada mustahkamlanadi.



22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni

MAHALLA RIVOJLANSA, MAMLAKAT YUKSALADI



Qahramon QURONBOYEV, O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

Mahalla azal-azaldan ahillik, bag'rikenglik va o'zaro yordam timsoli sifatida namoyon bo'lgan. U aholining kundalik turmushini tartibga solish, jamiyatda insonparvarlik, ezigulik, mehr-oqibat kabi yuksak qadriyatlarini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda mahalla institutining o'rnini va nufuzini yanada oshirish, faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2020-yildan boshlab 22-mart sanasi Mahalla tizimi xodimlari kuni sifatida nishonlab kelinayotgani esa ushbu sohaga yuksak e'tiborning yorqin ifodasi. Mazkur sananing aynan Navro'z ayomi bilan hamohang ravishda bayram qilinishida ham chuqur ramziy ma'no bor. Zero, Navro'z yangilanish, ezigulik va birdamlik bayrami bo'lsa, mahalla ana shu qadriyatlarini hayotga tatbiq etuvchi, odamlarni birlashtiruvchi muhim maskandir.

Xalqimiz manfaatini yo'lidagi sa'y-harakat

Hozir erishilgan natijalarni tahlil qilish va kelgusi vazifalarni belgilab olish uchun ham muhim fursat. Shu ma'noda, bugun mahalla tizimi faoliyatining samaradorligi aniq raqamlar va amaliy natijalarda o'z ifodasini topmoqda.

Quyida keltiriladigan raqamlar shunchaki statistika emas. Ular zamirida mahalla tizimini rivojlantirish yo'lida yaratilayotgan keng imkoniyat va shart-sharoitlar, "yettilik"ning 8992 mahallada ishlayotgan 55 mingdan ortiq xodimi hamda qariyb 1 millionga yaqin jamoatchilik faolining mas'uliyati, yagona maqsad, ya'ni xalqimiz manfaatini yo'lidagi sa'y-harakati mujassam.

Keyingi yillarda nutqimizda "ishsizlikdan (kambag'allikdan) xoli hudud" degan ibora tobora ko'proq qo'llana boshladi. Rosti, ko'pchiligimiz avval bu kabi maqsadlarga erishishni qiyin yoki deyarli imkonsiz deb o'ylaganmiz. Biroq "yettilik", mahallabay ishlar tizimi yo'lga qo'yilgach, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish borasidagi izchil chora-tadbirlar bu qarashlarni amalda inkor etdi. Natijada o'tgan yil yakunlariga ko'ra, 2090 mahalla ishsizlikdan, 1435 mahalla esa kambag'allikdan xoli hududga aylandi.

Ochig'i, bu raqamlarni aytishgina oson. Bunday o'ylab qaralsa, ular mohiyatida minglab oilalar hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, barqaror daromad manbaiga ega insonlar, yangi ish o'rinlari va tadbirkorlik imkoniyatlari mujassam. Biz uchun quvonarli jihati shundaki, bu natijalar mahalla institutining aholi turmush darajasini oshirish, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash va odamlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamlashda muhim o'rin tutayotganini yaqqol namoyon qilmoqda.

Joriy yilda mazkur yo'nalishdagi ishlarimizni yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarish

bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqyapmiz. Zero, Prezidentimiz kambag'allik va ishsizlikdan xoli mahallalar sonini 3500 taga yetkazish vazifasini qat'iy belgilab qo'ygan. Agar biz bu vazifani uddalassak, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining eng muhim maqsadlaridan biriga munosib hissa qo'shgan bo'lamiz.

Tinchlik va xavfsizlik har qanday jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridir. Shu nuqtaiy nazardan qaraganda, jinoyatchilikning oldini olish borasida ham mahalla tizimining o'ri beqiyos. O'tgan yili 4388 mahallaning jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirilgani tinch-osoysishta muhitni ta'minlashda mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va jamoatchilikning hamkorligi qanchalik muhimligini namoyon etadi. Bu esa jinoyatning oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki butun jamoatchilikning hamjihat harakati orqali samarali ta'minlanishini ko'rsatadi.

Bugun oila institutini mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb va ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Oilaviy muammolarni o'z vaqtida chuqur o'rganish, ularga maqsadli va samarali yordam ko'rsatish, psixologik va huquqiy maslahatlar berish yo'nalishidagi ishlar to'g'ri tashkil etilsa, mahallada ajrashishlar sezilarli darajada kamayadi, yoshlar o'rtasida sog'lom oilaviy munosabatlar shakllanadi va barqaror, mustahkam oilalar soni keskin ortadi.

Ushbu jarayonda jamoatchilikning ishtiroki va mas'uliyati keskin kuchayadi, mahallada o'zaro ishonch va hamjihatlik muhiti qaror topadi. Bu borada qilingan tizimli ishlar samarasi o'tgan yili ham yaqqol namoyon bo'ldi: 1670 mahallada ajrashish holatlarining oldi olingani oilalarni asrash, yoshlarni to'g'ri tarbiyalash borasida mahallaning ahmiyatini yanada bir bor tasdiqladi.



Yana bir jihat. Mahalla, avvalo, odamlar muammosini yaqindan biladigan tizim. O'tgan yili mahallaga kelib tushgan 4,8 milliondan ortiq murojaatning 89 foizi aynan shu yerning o'zida hal etildi. Bu, o'z navbatida, samarali mexanizm yo'lga qo'yilganini anglatadi. Joriy yilda mahallalardagi muammolarni bir vaqtda hal etish o'zida tezkor hal etishda barcha davlat organiga mas'uliyat yuklab, ijroni 24/7 rejimida onlayn nazorat qilish amaliyotini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Hozir manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda bu tartibni joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqilyapti.

Mahalla faqat ma'muriy tuzilma emas, balki oilalarni asrash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy-ma'naviy maskandir. Shu bois, bu kabi natijalar jamiyatimizda sog'lom va barqaror muhitni shakllantirishda mahallaning o'rnini va mas'uliyati qanchalik ulkan ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish mahallaning tarbiyaviy va ijtimoiy salohiyatini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Xitoylik professor va ekspertlar e'tirofi

Ishlohtlar markazida, shubhasiz, inson qadri, munosib hayot kechirishi masalasi turibdi. Ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish ham muhim.

Xitoy kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yetakchi davlatlardan. Uning tajribasini



Prezidentimiz "Mahalla obod bo'lsa — yurt obod bo'ladi" degan iborani ko'p ta'kidlaydi. Chunki mana shu muhim fikr zamirida xalqimiz farovonligini ta'minlash, xotirjam va munosib yashashi uchun qulay shart-sharoit yaratishdek ezgu maqsad mujassam. Mahalladagi har bir xonadon tinch-totuv, har bir ko'cha obod bo'lsa, butun mamlakatning taraqqiyot sur'ati ham, jamiyatning kayfiyati ham shunga yarasha bo'ladi.



muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga sayohati uyushtirildi. Barcha mahallada kayvoni va hoji onaxonlar ishtirokida sumalak sayillari o'tkazilmoqda.

Shubhasiz, bu kabi ezgu ishlar mahallaning asl mohiyatini yanada bir bor namoyon etadi. Chunki mahalla azaldan odamlarning issiq-sovug'idan xabar oladigan, ehtiyojmandlarga yelkadosh bo'ladigan eng yaqin ijtimoiy maskandir.

Obodlik ko'ngildan boshlanadi

"Obod" so'zi ravnaq topgan, yaxshi tartibga solingan, tinch-farovon joy degan ma'nolarni anglatadi. U tilimizga toza va chiroyli joy, infratuzilmasi yaxshi, odamlar yashashi uchun qulay, taraqqiy etgan va farovon hudud sifatida kirgan.

Aynan shuning uchun Prezidentimiz "Mahalla obod bo'lsa — yurt obod bo'ladi" degan iborani ko'p ta'kidlaydi. Chunki mana shu muhim fikr zamirida xalqimiz farovonligini ta'minlash, xotirjam va munosib yashashi uchun qulay shart-sharoit yaratishdek ezgu maqsad mujassam. Mahalladagi har bir xonadon tinch-totuv, har bir ko'cha obod bo'lsa, butun mamlakatning taraqqiyot sur'ati ham, jamiyatning kayfiyati ham shunga yarasha bo'ladi.

Ana shu ezgu an'analarning davomi sifatida joriy yil 13-14-mart kunlari mamlakatimiz bo'ylab "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan

Ahamiyatli, o'rganish va tahlillar natijasida bir muhim haqiqat yana bir karra o'z tasdiqini topdi: professorlar Van Syaolin va Chjan Si qayd etganidek, O'zbekiston qisqa vaqtda kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishdi. Xususan, Xitoy 40-yilda bosib o'tgan yo'lining muayyan natijalariga O'zbekiston so'nggi 9-yilda erishgani e'tirof etildi.

Bu esa mamlakatimiz mazkur yo'nalishda o'z yo'li, modeli va samarali yondashuvini shakllantirib ulgurigan dalolat beradi. Mutaxassislar fikricha, yaqin ikki yilda kambag'al oilalar sonini keskin qisqartirish, hatto bu muammoni to'liq bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Ahillik va shukronalik ramzi

Bu yilgi Ramazon oyi har qachongidan ham saxovatga boy bo'ldi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Prezidentimiz tashabbusi bilan "Ramazon — mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi" shiori ostida kompleks choratadbirlar amalga oshirildi. Buning uchun "Vaqt" xayriya jamoat fondiga 750 milliard so'm hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali 300 milliard so'm ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobidan ehtiyojmand oilalarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi, nogironligi bor shaxslarning davolanish va jarrohlik amaliyoti xarajati qoplab berildi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi yordamida nogironligi bo'lgan, yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan va ijtimoiy reyestrda kiritilgan 100 ming fuqaroning manzilli ro'yxatini shakllantirdi. Ularga davlat ko'magi sifatida 10 milliard so'mlik 10 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari jamlangan tufalar tayyorlanib, bosqichma-bosqich yetkazib berildi. Bundan tashqari, barcha mahalladagi ehtiyojmand oilalar xonadonlarida mahalla raislari tomonidan iftorlik dasturxonlari yo'zildi. Ularga jami 629 mingdan ortiq nuroniy, ko'cha (uy)boshlar, ijtimoiy daftarlari va ijtimoiy reyestrda fuqarolar taklif etildi.

Har bir mahalladan 5 nafardan — jami 45 mingdan ziyod kambag'al oilaning uy-joyi hashar yo'li bilan ta'mirlandi. Har bir mahalladan 10 nafardan — jami 100 mingga yaqin kambag'al oilaning tomonqasiga sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa turdagi ekinlar ekildi. Ehtiyojmand oilalardagi 20 ming kishining

sug'orish imkoniyatlari yaxshilandi. Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mamlakat bo'ylab 6,8 milliondan ortiq daraxt ko'chati ekildi. E'tiborsiz, ularning 1,4 milliondan ziyodi kambag'al oilalar xonadoniga ekilib, kelgusida ular uchun qo'shimcha daromad manbaiga aylanadi. Shu bilan birga, 850 dan ortiq yangi "yashil" bog' barpo etildi.

Hashar doirasida mahallalar infratuzilmasini yaxshilash ishlari ham bajarildi. 199 kilometr yo'l asfaltlandi, 690 kilometr yo'lga shag'al to'shaldi. Elektr ta'minotini yaxshilash uchun 590 ta transformator ta'mirlandi, minglab ustunlar yangilandi va 7000 dan ortiq tungi yoritqich o'rnatildi. Shuningdek, hashar kunlari 568 ta ijtimoiy va maishiy obyektlar foydalanishga topshirilib, 1387 ta yangi ish o'ri ochildi. Muhimi, bu tadbirlarda 17 milliondan ortiq fuqaro, jumladan, 9 milliondan ziyod yoshlar faol ishtirok etdi. Bu esa yosh avlodning yurt taqdiriga befarq emasligi, ular obod Vatan barpo etish g'oyasiga sidqildan hissa qo'shayotganini ko'rsatadi.

Obodlik faqat ko'cha-ko'ylarni tozalash yoki infratuzilmani yaxshilash bilan emas, avvalo, insonning ko'ngli, niyati va jamoaviy mas'uliyatidan boshlanadi. Shu ma'noda, har bir mahalla obod bo'lsa, yurtimizning taraqqiyoti va farovonligi yanada mustahkamlanadi.

Har qachongidan ham zalvorli

Hozir mahalla tizimi zimmasiga yuklangan vazifalar har qachongidan ham ulkan va mas'uliyatidir. 2026-yilning mamlakatimizda Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e'lon qilinishi ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Bu borada, avvalo, mahallalarda aholini band qilish va kambag'allikni qisqartirish ishlarini yanada tizimli tashkil etish, har bir oilaning daromad manbaiga ega bo'lishiga amaliy ko'mak berish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. Yoshlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish orqali mahallalarda barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirish ham muhim.

Shuningdek, "yettilik" a'zolari bilan birgalikda mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish, oila institutini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida ulg'aytirishda tarbiyaviy va profilaktika ishlarini yanada kuchaytirish, ayniqsa, ajralishlarning oldini olish, mustahkam va barqaror oilalarni shakllantirish mahalla faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Bundan tashqari, aholi murojaatlarini hal etishda mahallalarning imkoniyatini yanada kengaytirish, xonadonbay ishlar tamoyilini chuqur joriy qilish



boshlanadi!" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkazildi. Hashar kunlari 160 mingga yaqin ko'cha va 57 ming gektardan ortiq hudud obodonlashtirildi.

21 milliondan ziyod daraxtga shakl berildi. 665 ta ziyoratgoh hamda 25 mingdan ortiq bolalar va sport maydonchasi tartibga keltirildi. Tozalik ishlari ham keng ko'lamda bajarilib, 20 ming tonnadan ziyod chiqindi chiqarib tashlandi.

Hashar doirasida tomonqalar va sug'orib tizimlarini yaxshilashga ham alohida e'tibor qaratildi. 18 ming kilometrdan ortiq ariq va lotoklar tozalani, yangi suv yo'llari ochildi. Natijada 345 mingdan ziyod xonadon tomonqasida

hamda muammolarni tezkor hal etish bo'yicha raqamli mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan.

Eng muhimi, mahalla faoliyatida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, faol fuqarolar, nuroniylar va yoshlarni mahalla hayotiga jalb etish orqali jamiyatda hamjihatlik va birdamlik muhitini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Zero, mahalla rivojlansa, jamiyat mustahkamlanadi, mahalla obod bo'lsa, yurt obod bo'ladi. Shu ma'noda, 22-martni nafaqat Mahalla tizimi xodimlari kuni, balki ezgu qadriyatlarimizning tantanasini nishonlash har birimiz uchun yuksak sharafdur.

